

BOSHLANG`ICH SINFLARDA HUSNIXAT KO`NIKMASINI OSHIRISH

*Xorazm viloyati Urganch shahar
5-son umumiy o'rta ta'lim maktabining
o'qituvchi: Jabbarova Firuza*

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'shlang'ch sinf o'quvchilarini husnixatga o'rgatishda boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari uchun metodik yordam sifatida tayyorlandi.

Kalit so`zlar: husnixat, ta`lim, fikr, o`quvchi, boshlang`ich, yozuv.

Ma'lumki, XX asrning 2-yarmida boshlang`ich sinf metodikasida badiiy asarga estetik jihatdan yondashib sanat asari sifatida o`rganish goyasi ilgari surilgan bolsa, psixologik izlanishlar kichik yoshdagi o`quvchilarning potensial qobiliyati adabiyot dunyosini tanishtirishga boshqacha yondashish kerakligini taqozo etmoqda. Jumladan, N.N.Svetlovskaya o`quvchining mustaqil o`qish nazariyasini ishlab chiqqan bolsa, Ye.A.Adamov, M.S.Vasileva, V.G.Goretskiy, M.I.Omorokov, T.G.Ramzaeva va boshqalar badiiy asarning shakl va mazmunini tahlil qilish, L.A.Gorbushina, O.V.Kubasova, L.N.Mali, L.V.Nefedova va boshqalar ishlab chiqqan metodikada o`quvchilarning ijodiy ishlariga, ayrimlar esa o`qish texnikasini rivojlantirish zarurligini qayd etdilar. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev prezidentlik faoliyatining dastlabki kunlaridan boshlab yurtimizda innovatsion va kreativ fikrlaydigan, zamonaviy kadrlar tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, yuksak ma'naviyat egalari etib tarbiyalash, shu maqsadda ta'lim tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Jamiat qanday bo'lsa, maktab ham shunday qiyofa kasb etadi. Ta'limning yangi mazmuni o'quvchilarning har tomonlama kamol topishiga, ularning bilimini takomillashtirishga qaratilgandir. Ayniqsa, bolalarni xat-savodga o'rgatish, lug'atini boyitish, nutqlarini rivojlantirish orqali boshqa o'quv fanlarini o'zlashtirishga erishmoq lozim.

Analitik-sintetik tovush metodi tamoyiliga muvofiq, o'qish va yozuv birligi saqlanadi. Harflarni yozishda o'qishga o'rgatishdagi tarkib asos qilib olinadi, ya'ni o'qish darsida o'quvchilar harfni o'zlashtiradilar, matnni o'qiydilar, yozuv darsida esa shu harfli so'zni yozadilar. Yozuvga o'rgatish, birinchi navbatda, grafik malaka hosil qilishdir. Har bir malaka ham ta'lim berish, ko'nikmani shakllantirish va shu asosda qator mashqlarni bajarish natijasida hosil qilinadi. Shuningdek, husnixat bilan to'g'ri yozish ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, turli rasmiy hujjatlarni yuritishda kishilar unga ehtiyoj sezadi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni husnixat bilan yozishga o'rgatish metodikasi ularda aniq, chiroqli va tez yozish imkonini hosil qilishi lozim. Bu kabi vazifalarni amalga oshirish uchun dastur mazmunini va uning talablarini, o'qitish

usullarini, yozuvga o'rgatishning gigeyenik shartlarini, o'quvchilarning yozuvidagi individual kamchiliklarni tahlil qilish sabablarini aniqlash va tuzatish usullarini ishlab chiqish zarur.

Yozuv kishilarning o'zaro fikr almashishi va bilimlarni egallashning qudratli vositasi hisoblanadi. Yozma nutq avlodlarni bir-biriga bog'laydi, uzoq saqlanadi. Yozuv tufayli kishi fikri, insoniyat qo'lga kiritgan bilimlar avloddan-avlodga yetib boradi, abadiy yashaydi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni husnixatga o'rgatish extiyoji yuqoridagi talablar asosida yuzaga keladi. Husnixat (chiroyli yozuv) -chiroyli yozish san'ati. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni husnixat bilan yozishga o'rgatish metodikasi ularda aniq, chiroyli va tez yozish imkonini hosil qilishi lozim. Bu kabi vazifalarni amalga oshirish uchun dastur mazmunini va uning talablarini o'qitish usullarini yozuviga o'rgatishning gigeyenik shartlarini, o'quvchilarning yozuvidagi individual kamchiliklarini tahlil qilish sabablarini aniqlash va tuzatish usullarini ishlab chiqish zarur. Demak, yozuv kishi hayotida pedagogik va ijtimoiy ahamiyatga ega. Yuqoridagi talab asosida yozishga o'rganish boshlang'ich sinflardan boshlanadi. 1-4-sinf o'quvchilarini chiroyli yozishga o'rgatish uchun o'qtuvchining o'zi husnixat bilan yozishi, shu bilan birga o'quvchilarni chiroyli yozishga o'rgata olishi kerak. Husnixat va uni o'rgatish fani amaliy fan bo'lib u chiroyli yozishga o'rgatish bilan bir qatorda o'qitish, tarbiyalash vazifalarini bajaradi. Birinchidan husnixat bilan yozish o'quvchilardan mehnat madaniyatini tarbiyalaydi. Topshiriqlarni toza, aniq va madaniyat bilan bajarish ko'nikmasini hosil qiladi.

Ikkinchidan dastxatga pala-partish va be'etibor munosabatda bo'lish o'quvchilarning imloviy savodsizligini keltirib chiqaradi. Natijada o'quvchilar qiladigan ishlariga o'ylab o'tirmay bajaraveradilar, o'z xato kamchiliklarini o'ylab ham ko'rmaydigan bo'lib qoladilar.

Uchinchidan husnixat bilan to'g'ri yozish ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib turli rasmiy hujjatlarni yuritishda kishilar unga ehtiyoj sezadi. Husnixat bilan yozilmagan, to'ldirilmagan hujjatlarni o'qishga o'qiyotgan kishining ko'p vaqt sarflashiga to'g'ri keladi. Vaholanki, maktabda har kuni o'qituvchi bir nechta o'quvchilar daftarini tekshiradi. Agar o'qib bo'lmaydigan qilib yozgan bo'lsa, o'qituvchining ham unga ko'p vaqt sarf bo'ladi. Aniq va ravon qilib yozgan dastxati o'qituvchining ishini yengillashtiradi, keyingi ta'limiy maqsadlarini amalga oshirishlari uchun imkoniyat yaratadi.

Chiroyli yozuvga o'rgatish umumiylididaktik qoidalar bilan birga yozuv malakasini shakllantiruvchi qoidalarni ham o'z ichiga oladi. Umumiylididaktik qoidalar, takroriylik ko'rgazmalilik yosh va o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olish, tushunarilik, onglilik husnixat qoidalarni amalga oshirishda juda muhimdir. Ayniqsa, ko'rgazmalilik prinsipi chiroyli yozuv malakasini singdirishda muhim rol o'ynaydi. O'quvchilar husnixatining chiroyliligi va yozuv daftarining talab darajasida tutilishini

o'qituvchi tomonidan tez-tez tekshirib turilishi, chiroyli yozuvlar solishtirilib, rag'batlantirib borilishi o'quvchilar husnixatining chiroyli bo'lishiga, tozalik hamda taptibga rioya qilishlariga sezilarli ta'sir etadi. Sinfda "Kimning xati chiroyli", "Husnixatimni ko'ring, o'zingiz baho bering" burchaklari tashkil etilsa, chiroyli yozuvli daftarlarni namuna shaklda olib qo'yilsa, barcha o'quvchining chiroyli yozishga undaydi. Chiroyli yozuv darslarida so'zlar, gaplar, matnlar yozish, ularning imlosini tekshirishi orfografik ziyraklikni asta-sekin shakllantira boradi, imlo qoidalarini puxta egallahshlariga zamin yaratadi. Bu ishlarning izchillikda amalga oshirilishi boshlang'ich ta'limda husnixat darslarining sifat va samaradorligini oshirish uchun muhim omil sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruzasi.–T.: "O'zbekiston", 2017.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017.
3. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha Yangi tahrirdagi o'quv dasturi // Boshlang'ich ta'lim . - Toshkent, 2005.- 5-son, 21-33-betlar.
4. Boshlang'ich ta'lim konsepsiyası// Boshlang'ich ta'lim, 2014